

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

**“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA INNOVATSIYALARNI
KENG JORIY QILISH VA BARQAROR IQTISODIYOTNI
INSTITUTSIONAL TARAQQIY ETTIRISH DOLZARBLIGI**

**INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF A SUSTAINABLE
ECONOMY AND WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS
DURING THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY**

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ УСТОЙЧИВОЙ
ЭКОНОМИКИ И ШИРОКОЕ ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ ПРИ
ПЕРЕХОДЕ К “ЗЕЛЕННОЙ” ЭКОНОМИКЕ**

Onlayin xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil 20-may



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Google
Scholar

doi



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



II shu'ba

“YASHIL” IQTISODIYOTGA INNOVATSIYALARNI KENG JORIY ETISHDA ILMIY TADQIQOT ISHLARINING LOYIHAVIY ISTIQBOLLARI

Section II

DESIGN PERSPECTIVES FOR RESEARCH WORK ON THE WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS IN THE GREEN ECONOMY

II секция

ПРОЕКТНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ ПО ШИРОКОМУ ВНЕДРЕНИЮ ИННОВАЦИЙ В “ЗЕЛЕНУЮ” ЭКОНОМИКУ

PROGRESS
PECC





HUDUDLARNING IQTISODIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISHDA “YASHIL” IQTISODIYOT VA “YASHIL” ISH O‘RINLARINING AHAMIYATI

Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor og'li

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va ekonometrika kafedrası
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “yashil” iqtisodiyot va “yashil” ish o‘rinlarining jamiyat va umuman iqtisodiyotdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” ish o‘rinlari, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT).

Abstract: In this article, the importance of “green” economy and “green” jobs in society and whole economy, as well as different definitions of them were identified.

Key words: “Green” economy, “green” jobs, International Labor Organization (ILO).

Аннотация: В данной статье показана важность зелёной экономики и зелёных рабочих мест в обществе и экономике в целом.

Ключевые слова: “Зеленая” экономика, “зеленые” рабочие места, Международная организация труда (МОТ).

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasi dastlab atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida shakllana boshladi. Ushbu atama ilk bor 1989-yil Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomonidan “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi” deb nomlangan hisobotda foydalanilgan¹.

“Yashil” iqtisodiyot atamasiga BMTning atrof-muhit dasturi doirasida shunday ta’rif beriladi: “Yashil” iqtisodiyot ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan infratuzulmani yaratish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanish amaliyotidir².

Ushbu BMTning atrof-muhit dasturida “yashil” iqtisodiyot sohasida 3 ta asosiy yo‘nalishda ish olib borilayotganligi qayd etilgan. Ular:

- Mintaqaviy, submintaqaviy va milliy ko‘lamda barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun makroiqtisodiy yondashuvlarni targ‘ib qilish;
- “Yashil” moliya, texnologiya va investitsiyalardan foydalanishga asosiy e’tiborni qaratgan holda “yashil iqtisodiyot” yo‘nalishlarini namoyish qilish;
- Mamlakatlarni yashil iqtisodiyotga o‘tishini qo‘llab quvvatlash³.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘zbek iqtisodchilari M. Boltaboyev va E. Muminovalar tomonidan shunday ta’rif berilgan: atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda “yashil iqtisodiyot” ko‘proq amaliy xarakterga ega bo‘lgan fan hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot” ilmiy fan sohasi emas, balki ustun darajada real iqtisodiy siyosat, konkret faoliyat sohalari (energetika, innovatsiya, qishloq xo‘jaligi va b.)ga taalluqlidir⁴.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib xulosa qilsak, “yashil” iqtisodiyot atrof-muhitga kam zarar yetkazish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror rivojlanishga erishish tamoyilidir. Shuningdek, ushbu soha rivojlangani sari unda yangi atama hamda tushunchalar paydo bo‘la boshladi. Ularga misol tariqasida, “yashil” ish o‘rinlar, “yashil” moliya, eko-innovatsiya kabi tushunchalarni kiritish mumkin.

“Yashil” ish o‘rinlari atamasi ilk marotaba barqaror va atrof-muhitga kam zarar yetkazuvchi kasblarni izohlash uchun 1990-yillar oxirida qo‘llanila boshlangan. Ushbu atama 2000-yillar boshlarida esa hukumat va

1 Vahobov A.B., Xajibakiev X.K. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020. 11-b.

2 “UNO environment program” internet sayti kutubxonasi.

3 “UNO environment program” internet sayti kutubxonasi.

4 Boltaboev M, Muminova E. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. FarPI. 2023. 18 b.



tashkilotlarning karbonat gazlarini chiqarishni kamaytirish va yashil sanoatni qo'llab-quvvatlash bilan ancha ommalashdi.

“Yashil” ish o'rinlari – bu ishlab chiqarish va qurilish kabi an-anaviy tarmoqlarda yoki qayta tiklanadigan energiya va energiya samarador bo'lgan yangi hamda rivojlanayotgan yashil sektorlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va tiklashga hissa qo'shadigan munosib ish joylaridir.

Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti elektron kutubxonasida “yashil” ish o'rinlari xususida shunday ma'lumotlar keltirilgan: “Yashil” ish o'rinlari xom ashyo va energiyadan samarali foydalanishga, issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirishga, chiqindi va ifloslanishlarni minimallashtirishga, ekotizimni qayta tiklash va muhofaza qilishga, iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'siriga moslashishga yordam beradi.

Xalqaro mehnat tashkilotining 2011-yilda “Skills for green jobs. A global view” nomi ostida chop qilingan maqolasida “yashil” ish o'rinlari xususida yana shunday ta'rif beriladi: “Yashil” ish o'rinlari korxona va iqtisodiyot tarmoqlarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini eng minimal va barqaror darajagacha tushiradigan ish o'rinlaridir. Ushbu ish o'rinlari qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish, boshqaruv sohalarida atrof-muhitni muhofaza qilish yoki sifatini tiklashga hissa qo'shadigan ishlarni ham o'z ichiga oladi, Shuningdek, bu ish o'rinlari iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liq tadbirlarni ham qamrab oladi. Shu o'rinda har bir kasb atrof-muhitga kam zarar yetkazadigan “yashil” ish o'rinlariga aylana olish salohiyatiga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Yuqorida “yashil” ish o'rinlari haqida “Xalqaro mehnat tashkiloti” tomonidan korxonalarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradigan kasblar sifatida izohlanishi haqida fikr bildirib o'tdik. Ammo keng ma'noda 2018-yilda o'tgan “Yevropa Komissiasida” bu atama shunday izohlanadi: yashil ish o'rinlari bu atrof-muhitni muhofaza qiladigan yoki tiklaydigan axborot texnologiyalari hamda materiallar bilan ishlaydigan bevosita ish o'rinlaridir. Buning uchun, maxsus ko'nikmalar, bilim va tajriba (masalan, atrof-muhit qonunchiligiga muvofiqligini tekshirish, korxona ichidagi resurslar samaradorligini nazorat qilish, yashil mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni oshirish) talab qilinadi⁵.

So'nggi yillarda, ilm-fan sohasida ham, davlat statistik ma'lumotlarida ham “yashil” ish o'rinlari keng muhokama qilinmoqda. Ammo, hali ham ushbu atamaga umumiy ta'rif va o'lchov tushunchasi mavjud emas, uning o'rniga umumiy ma'no beradigan bir nechta yondashuvlar mavjud. Turli tariflar mahsulot, ishlab chiqarish va ish o'rinlariga ko'ra turlicha tavsiflanadi⁶.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirish aytish mumkinki, “yashil” ish o'rinlari bizni o'rab turgan muhitni asrab qolishga va muhofaza qilishga ulkan hissa qo'shadigan kelajak kasblaridir.

“Yashil” iqtisodiyotga o'tish borasida so'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan turli qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-436-sonli qarori ham “yashil” inklusiv o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadamdir. Shuningdek, ushbu qaror “2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash dasturini ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltaboev M, Muminova E. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. FarPI. 2023.
2. “Green jobs” dissertation of Markus Janser. Otto-Fredrikh University Bamberg. Germany. 2018.
3. Journal of Environmental management. Exploring the association between circular economy strategies and green jobs in European companies.
4. Vahobov A.B., Xajibakiyev X.K. “Yashil iqtisodiyot”. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020.
5. “ILO” – internet sayti kutubxonasi
6. “UNO environment program” internet sayti kutubxonasi.

5 Journal of Environmental management. Exploring the association between circular economy strategies and green jobs in European companies. Page 297.

6 “Green jobs” dissertation of Markus Janser. Otto-Fredrikh University Bamberg. Germany. 2018. Page 35.



MUNDARIJA

I shu'ba

IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN "YASHIL" IQTISODIYOTGA JADAL O'TISH

Section I

ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

I секция

УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К "ЗЕЛЕННОЙ" ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

The Development of Marketing Innovations in Retail Trade	4
Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda	
Направления совершенствования стратегии компании для успешной организации IPO	9
Шахзод Сайдуллаев	
"Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	11
Abdurahmonov Xolboy To'xtayevich	
Тўқимачилик саноати кластерлари инновацион фаолиятининг барқарор ривожланиш муаммолари ва ечимлари	14
Икрамов Мақсад Муратович	
O'zbekistonda chakana savdo korxonalarini rivojlanishi va innovatsion faoliyati	20
Karimov Baxrom Ilxomjonovich	
Unveiling the Dynamics of Agglomeration Economies in Sustainable Development	24
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik mahsulotlari bozorini diversifikatsiyalash usullari	28
Raximov Furqat Jalolovich	
Qashqadaryo viloyatida Safari turizmini rivojlantirish dinamikasini o'rganish	32
Ro'ziyev Bobir Akramovich	
Брендни шакллантириш ва ривожлантириш бўйича замонавий маркетинг назариялари ва стратегиялари	34
Зияева Шахло Шоакбар қизи	
The Development of Marketing Innovations in Retail Trade	37
Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda	
Ногиронлиги бор шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш масалалари	42
Каримов Бекзоджон Илхомович	
Ichki turizmni rivojlanlantirish tashkiliy mexanizmining asosiy prinsiplari	45
Dehqonov Burxon Rustamovich	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda ko'zi ojizlar bandligining innavatsion yechimi	48
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li	
Аудиторлик текширувини халқаро стандартлар асосида ташкил этиш хусусиятлари	51
Исмоилова Феруза Исроиловна	



II shu'ba

“YASHIL” IQTISODIYOTGA INNOVATSIYALARNI KENG JORIY ETISHDA
ILMIY TADQIQOT ISHLARINING LOYIHAVIY ISTIQBOLLARI

Section II

DESIGN PERSPECTIVES FOR RESEARCH WORK ON THE WIDE IMPLEMENTATION
OF INNOVATIONS IN THE GREEN ECONOMY

II секция

ПРОЕКТНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ
ПО ШИРОКОМУ ВНЕДРЕНИЮ ИННОВАЦИЙ В “ЗЕЛЕНУЮ” ЭКОНОМИКУ

Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish.....	56
Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	
Rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorining rivojlanishi tahlili.....	58
Axmedov Doniyorbek Ulugbek o'g'li	
Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	60
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Янги Ўзбекистонда инсон экологиясини юксалтиришнинг инновацион механизмлари.....	62
Ҳакимов Назар Ҳакимович, Рахмонов Дўстмурод Абдиназарович	
Тадбиркорлик субъектларини ривожлантиришда саноат ипотекасининг ўрни	67
Султанов Бахром Бегдуллаевич	
Ижтимоий ҳимояни ривожлантиришда янгича ёндашувлар	70
Каримов Бекзоджон Илхомович	
Капитал бозорини ривожлантириш масалалари	72
Турдиева Узайда Омирбаевна	
Инновацион тараққиёт йўлига ўтиш даврида меҳнатга ҳақ тўлашнинг рағбатлантирувчи таъсирини оширирилиши	74
Алимжон Қулматов	
Zamonaviy logistika tizimida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	78
Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li	
The Development of Marketing Innovations in Retail Trade.....	81
Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda	
Innovatsion rivojlanishni baholovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish (xorij tajribasi)	86
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Махсус иқтисодий зоналар фаолияти самарадорлигини ошириш борасида амалга оширилаётган ишлар тўғрисида.....	90
Давлаев Ғолиб Ашурович	
Hududlarning iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” ish o'rinlarining ahamiyati	92
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor og'li	

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.